



## JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - NOYABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-noyabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 568,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 107,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,7 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,5 % ga, o'sishi kuzatildi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 255,8 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,5 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## 2023-yil yanvar-noyabr

Tumanlar miqiyosida, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so‘mda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
G‘allaorol tumani	26 693,7	33 800,5	7 106,8
Sharof Rashidov tumani	51 043,3	31 147,7	- 19 895,6
Forish tumani	8 868,0	5 229,4	-3 638,6
Jizzax shahri	25 962,1	163 483,9	137 521,8
Zafarobod tumani	13 189,6	8 490,7	- 4 698,9

Jami sanoat ishlab chiqarishi tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 63,9 % Sharof Rashidov tumaniga to‘g‘ri kelib 12,1 % ni va G‘allaorol tumani 13,2 % ni tashkil etdi.

39,0 %


2022- yil

140,9 %

2023- yil

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat



2023- yilning yanvar-noyabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16992,8 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,6 % ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-noyabr

93,9 %

2023-yil yanvar-noyabr

97,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,1 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 54,8 % (25,0 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 15,4 % (21,1 %) va quyi texnologiyalisi - 26,5 % (47,7 %)ni tashkil etdi.







Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 52,2 % ( 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 112,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % ( 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,0 % ( 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,3 % ( 2022- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,1 % ( 2022- yilning yanvar –noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,0 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


**Paxta tolasi**




**Paxta chigiti**




**Paxta linti**




**O'simlik yog'i (tozalangan)**



**Trikotaj polotnolar**



**Yumshoq bug'doy va spelta uni**



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
<b>Paxta tolasi, t.</b>	40 938,6	24 593,7	-16 344,9
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.</b>	48 134,8	14 716,4	-33 418,4
<b>Paxta chigiti, t.</b>	66 933,5	37 745,8	- 29 187,7
<b>O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.</b>	8 175,9	5 069,1	-3 106,8
<b>Paxta linti, t.</b>	4 834,3	2 212,0	-2 622,3
<b>Trikotaj polotnolar, t.</b>	1 720,0	2 315,0	595,0

2023- yilning yanvar-noyabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 14,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 68,1 % kamaygan), 24,6 ming tonna paxta tolasi ( 39,9 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 37,7 ming tonna paxta chigiti 43,6 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**

**31,9 %**


**Paxta tolasi, t.**

**60,1 %**

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 129,0 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 122,7 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 137,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 15,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 76,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,1 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 2136,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-noyabr oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 97,0 % tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 1078,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.





### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 60,3 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 116,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 29,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 101,5 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 96,7 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2667,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,8 %, fizik hajm indeksi 111,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 494,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 96,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,2 % ni, fizik hajm indeksi 126,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 555,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi 138,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 603,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 75,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, fizik hajm indeksi 93,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 336,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 245,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,4 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 27,7 % ga pasayishi kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	278 993,3	179 919,9	-99 073,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	66 702,1	65 994,7	-707,4

## 2023-yil yanvar-noyabr

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish**

*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.*


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-noyabr	2023- yil yanvar-noyabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	56 686,3	57 579,5	893,2
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	22 408,8	16 875,9	-5 532,9

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 1,6 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 2,7 % ga pasayishi kuzatildi.*

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10194,7 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 188,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 58,0 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar-noyabr

26,3%

2023-yil  
yanvar-noyabr

8,5%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil  
yanvar-noyabr

73,7%

2023-yil  
yanvar-noyabr

91,5%


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,5 % (2022- yil yanvar-noyabr oylarida 26,3 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 24,8 % ni va Zarbdor tumani 9,7 % ni, Zomin tumani 20,4 % ni hamda Paxtakor tumani 16,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Zomin tumanida (114,5 %), Forish tumanida (109,1 %) hamda Yangiobod tumanida (101,7 %), qayd etildi.



## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2671 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 755 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,3 % i ) Jizzax shahriga, 379 tasi (14,2 %) Sharof Rashidov tumaniga, 297 tasi ( 11,1 %) G'allaorol tumaniga, 256 tasi ( 9,6 %) Zomin tumaniga va 170 tasi (6,4 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan



### Jami faoliyat yuritayotgan

